NAMANGAN VILOYATIDAGI QABRISTON NOMLARINING ETIMOLOGIK TAHLILI

Olimova Matluba
Pop tumani 1-sonli texnikum ona tili va adabiyot o'qituvchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24244079

ANNOTATSIYA: Ko`plab qabriston nomlarini lingvistik tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan, Namangan viloyatidagi nekronimlar ham to`la yoritilmagan va ushbu maqolada Namangan viloyatidagi qabriston nomlarini o`rganish orqali shahar toponimiyasining kam o`rganilgan, ammo mazmunan boy qatlamini ochib berishga harakat qilingan. Namangandagi ko'plab nekronimlar asrlar davomida saqlangan bo'lib, ularning semantik va etimologik tahlili xalqning diniy qarashlari, qadriyatlar tizimi va tarixiy xotirasini tiklash uchun muhimdir

kalit so'zlar: nekronim, semantik, etimologik, lingvistik, qabriston, toponim, toponimiya.

Примечание: В настоящее время проводится лингвистический анализ многих названий кладбищ.Это одна из актуальных проблем. В частности, некронимы в Наманганском регионе изучены недостаточно, и данная статья пытается раскрыть малоизученный, но богатый содержанием слой городской топонимии, изучая названия кладбищ в Наманганском регионе. Многие некронимы в Намангане сохранились на протяжении веков, и их семантический и этимологический анализ важен для восстановления религиозных взглядов, системы ценностей и исторической памяти народа.

ключевые слова: некроним, семантический, этимологический, лингвистический, кладбище, топоним.

"Nekronimlar qabristonlar, mozorlar, mana shu tipga mansub bo`lgan muqaddas joylarning atoqli otlari hisoblanadi. Mohiyatan teonimlar antroponimlarga, antroponimik ko`lamga yaqin turadi, agnonimlar va nekronimlar esa jonsiz obyektlarning atoqli oti sifatida toponimiya, toponimik ko`lamga mansubdir."[1] Nekronim- mozorlar va qabristonlar va mana shu tipdagi muqaddas qadamjolarning atoqli nomlari. Qabriston yoki mozor marhumlar dafn etiladigan maxsus joy. Masalan,Sangmozor,Yakkatol,Sumbulmozor(Chust tumani). Albatta,har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros,madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bu fikrlar, albatta , ota-bobolarimizning,xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy,madaniy, falsafiy mushohadasi va qarashlari mahsuli bo'lgan joy nomlari-toponimik merosga, jumladan, nekronimlarga ham taalluqlidir. Keyingi yilllarda olib borilgan geografik tadqiqotlarda nomlarning ekologik funksiyasiga e'tibor qaratilmoqda. Qo'yilgan nom shu joyni, mahalla yoki ko'chani, ariq yoki soyni, tog' yoki tepalikni ilohiylashtirib, u yerdagi tabiat komponentlarini muhofaza qilishga, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishga ,aholi maskanlarida sokin va osoyishta muhitni yaratishga yordam beradi.

Keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar nekronimlar sirasiga mozor, qabriston nomlari bilan bir qatorda masjid, turli ziyoratgoh nomlarini ham kiritadilar. Masjid nomlari ekklezionimlar, ziyoratgoh nomlari esa agiotoponimlar guruhiga kiradi. Manbalarda barcha nekronim turlarini xalq tomonidan e'zozlanishi, qadrlashi, muqaddas bilib ziyorat qilinishi bois agiotoponimlar guruhiga kiritish kuzatiladi. Hozirga qadar Namangan bo'yicha 400 ga yaqin nekronimlar to'plangan. Bu esa viloyat

[1] Б.Йўлдошев "УЗБЕК ОНОМАСТИКАСИ МАСАЛАЛАРИ" танланма фанидан услубий қўлланма, Самарканд – 2011, 65-б

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

toponimiyasida nekronimlar salmoqli o'rin egallashini ko'rsatadi. Yangiqo'rg'on tumanida jami 71 ta mahalla bo'lib, ularda jami katta va kichik 67 ta qabriston va 19 ta masjidlar bor. Masalan,

Masjidlar	Qabristonlar
1. Bahouddin Pirim jome masjidi.	1. Mamay qabristoni.
2. Navkent masjidi.	2. O'zak qabristoni.
3. Beshbuloq jome masjidi.	3. Gaiston mahalla qabristoni.
4. Qulluqtol jome masjidi.	4. Yodgorlik qabristoni.
5. Boboihandon jome masjidi.	5. Iskovot qabristoni.
6. Sho'rkent jome masjidi.	6. Boboihandon qabristoni.
7. Abdulloh jome masjidi.	7. Yakkatut qabristoni.
8. Imom At-Termiziy jome masjidi.	

Qabriston turlari va ularni muhofaza qilish tartibi dafn marosimi,muayyan xalq,din,mazhab,ijtimoiy guruh va boshqalar, shuningdek, hokimyat organlari tomonidan o'rnatilgan ma'muriy va sanitariya normalari bilan belgilanadi. Ushbu qabriston va masjidlar uzoq tarixga ega. Ularni ayrimlari so'nngi 30 yil ichida paydo bo'lgan. Masalan, "Boboyaxsiz" qabristoni, rivoyat qilishlaricha, Boboyaxsiz ota sohibkaromat, avliyo kishi bo'lgan. Avliyo ota sovuq qish kunlarida och qolgan xalqni bisotidagi bir bosh qoramolini so'yib mehmon qilgan. Atrofda qor, hamma yoq muzlagan, o'tin yo'q. Boboyaxsiz muzlardan gulxan yoqib, go'sht pishirib, ochlarni to'ydiradi. Avliyo ota mehmonlardan go'shtni yeb bo'lgach suyaklarni qoramol terisi ustiga to'plashni so'raydi. Barcha suyaklar to'plangach "Ha jonivor, turaqol endi" deganlaridan so'ng teri va suyaklar yana qoramolga aylanib, yurib ketgan. Bobo Yaxsiz so'zi "muzni eritgan, muzda gulxan yoqqan" ma'nolarini anglatadi. Boboyaxsiz ota vafotlaridan so'ng qabrlari oddiy, dabdabasiz bo'lishini istaganlar. Avliyo ota qabri ustiga bir necha bor maqbara tiklangan. Biroq qabr silkinib, har gal qabr ustiga tiklangan maqbara toshlarini sochib yuboravergan.

"Uyqudagi go'zal" qabristoni esa Nanay qishlog'ida qadim zamonlarda sarkash zardushtiy qabilalar yashagan. Ular asosan chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar, ayni paytda hunarmandchilik ham asosiy mashg'ulotlardan biri bo'lgan. Nanayliklarning boy badavlat hayotiga xasad qilgan ko'chmanchi qabilalar bu yurtga egalik qilish uchun bostirib keladilar. Mohir jangchi bo'lgan nanayliklar o'z yurtlarini mardona himoya qiladilar. Biroq dushman qo'shinlari son jihatdan ustun bo'lganliklari sabab g'alaba qozonadilar. Nanay qabilasi sardorining qizigina bir necha dugonalari bilan omon qoladi. Dushman sarkardasi zardushtiy malikani zo'rlik bilan o'z nikohiga olmoqchi bo'ladi. Sarkash malika dugonalari bilan qurollanib tog' bag'ridagi g'orga yashirinadi. Malikani olib kelish uchun yuborilgan dushman askarlari g'ordan qaytib chiqmaydilar. Bu ahvol bir necha marta takrorlanadi. Shundan so'ng dushman sarkardasi g'orga kirish joyini tog' toshlari bilan berkitib tashlaydi... Oradan yillar o'tib, tog' cho'qqisida "uyqudagi go'zal" paydo bo'ladi.

Yangiqo'rg'on tumanida jolashgan yana bir qabriston "Qizmozor" qabristonidir.

Bu nom bilan ataluvchi qabriston tuman markazidan biroz uzoqlikdagi Yumaloqtepa ko'chasida joylashgan. Ushbu qabriston nomi kelib chiqishi uzoq tarixga borib taqaladi. Aytishlaricha qadimda bu yerlarning hukmdorning ayoli 7 ta qiz farzand ko'radi. Bundan hukmdor g'azablanib o'z qizlari va shahardagi hamma qizlarni bir joyga to'plab ko'mib yuborishni buyuradi. Shundan so'ng bu yer ana shunday atala boshlangan.

"Ko'ktullik" qabristoni Yangiqo'rg'o'n tumani, Bekobod qishlog'ida joylashgan. Arabistonlik Maxdixo'ja o'z lashkari bilan qalmoqlarga qarshi shu yaqindagi Yettikkan tepaligida jang qilgan. Maxdixo'ja jangga ko'k tug'[bayroq] ko'tarib kirgan deyishadi. Uni qo'lga olinib qatl qilinadi. Jasadi esa yerga qo'yiladi. Vaqtlar o'tib "Ko'k tug'lik" iborasi "Ko'ktullik" ka aylanadi.

"Shahid" qabristoni Yangiqo'rg'on tumani Bekobod qishlog'idagi qabriston nomi. 1,5 asr oldin tashkil topgan. 150 yil oldin qishloqda "qipchoqso'ydi" nomi bilan qatl bo'lib, bir kechda 40 dan ortiq odam so'yib tashlangan va qabriston nomi ana shu qurbonlar xotirasiga qo'yilgan.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Nekronimlarni o`rganish faqatgina ilmiy qarashlarimizni kengaytiribgina qolmay, balki o`zimiz yashayotgan hududimiz haqidagi muhim ma'lumotlarni bilishimizga, qaysidir ma'noda kelajak avlod uchun saqlab qolishimizga yordam beradi. Biz yashoyotgan zaminning nomlanishi ostida ham chuqur ma'no yashirin. Qabriston nomlarini tahlil qilish nafaqat onomastik bilimni boyitadi, balki xalqning diniy-ma'naviy merosini ilmiy jihatdan o`rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: Fan.
2. Б.Йўлдошев "УЗБЕК ОНОМАСТИКАСИ МАСАЛАЛАРИ" танланма фанидан услубий қўлланма, Самарканд – 2011, 65-б
3. Begmatov E. O‘zbek onomastikasi masalalari. — Toshkent: Fan.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.